

**O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MUALLIFI MUNOZARALI
BO'LGAN G'AZAL**

*Qo`qon Universiteti Andijon Filiali
Ijtimoiy - gumanitar va pedagogika fakulteti
Filologiya fani yo`nalishi*

Abdusalomova Mashhura Isomiddin qizi
Filologiya fani yo`nalishi

Muhtorova Shoiraxon Abduhalil qizi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada biz “Maxsus “radifli g`azalni ikki shoirning ham ijod namunalarida, ya`ni Yusuf Amiriyning va Umarxon Amiriyning g`azallari safida kelganligi, asli bu g`azal kimning ijod mahsuli sifatida bilishimiz kerakligi to`g`risida so`z boradi .*

**Kalit so`zlar :** *“Maxsus “ radifli g`azal , Yusuf Amiriy , Umarxon Amiriy , Alisher Navoiy , “Majolis un-nafois “, “Muhokamat ul-lug`atayn” .*

KIRISH

O`zbek mumtoz adabiyoti jahon madaniyati tarixida o`z o`rniga ega bo`lgan adabiyotdir . Bu adabiyot serqqira ekanligi hamda ildizlari chuqur teranligi bilan diqqatga loyiqdir .Adabiyotni chuqur o`rganish uning seyr -u jozibasidan bahramand bo`lish insonni ma`naviy barkamol qiladi , uni go`zallik va nafosat olamiga yetaklaydi . Kitob o`qish esa inson tafakkurining ozuqasidir . Bu haqida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Kitob o`qigan o`zizni ustida ishlagan odamda qanoat bo`ladi . U befarq bo`lmaydi . Uning kuchi bilimida bo`ladi shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi .”Kattalarga “ xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor ,ilmi bor . Mana nima uchun kitob o`qinglar deymiz . Kitob o`qisangiz savol berishni bilasiz “. Deyar yoshlarni kitobxonlikka targ`ib qilgan muhtaram yurtboshimiz .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shu sababli ko`plab kitoblar mutolaa qilar ekanmiz .Biz bir muammoli mavzuga duch keldik . Barcha kitobxonlarga ma`lumki ,o`zbek mumtoz adabiyoti



tarixida , umuman olganda har bir ijodkor taxallus orqali qalam tebratgan. Biz ko`plab bir xil taxallusli ijodkorlarga duch kelamiz. Shu jumladan sizga ikki adibni aytib o`tmoqchimiz . Ya`ni Yusuf Amiriy hamda Umarxon Amiriydir . Endi asosiy muommoga to`xtaladigan bo`lsak , “ Maxsus “ radifli g`azalni kitoblarda ikki Amiriyning ham g`azallari orasida uchratishimiz mumkin . Ayrim kitoblarda Yusuf Amiriyning g`azallari orasida kelgan bo`lsa , ba`zi kitoblarda esa Umarxon Amiriyning g`azallari orasida ucharatamiz .

Endi biz ushbu g`azalning muallifi sifatida bilganimiz Yusuf Amiriyga to`xtalib o`tamiz .Uning ijodini o`rganar ekanmiz , Amiriy ijodi katta bo`lmay bizgacha “Tomosho “ radifli , “ Maxsus “ radifli , “Etmish “ radifli g`azallari, biita tarje`bandi va bir nechta tuyuqlari yetib kelgan .bundan tashqari “ Dahnoma “ va “Banginva chog`ir munozarasi “ kabi asarlari ham mavjud .Yusuf Amiriy juda ham mashhur bo`lmaganligi tufayli ba`zi o`quvchilar uchun notanish chunki ko`p kitoblarda uning hayoti haqida ma`lumot mavjud emas . Biz sizni adib bilan tanishtirmoqchimiz . Adib XV asrda Hirotda yashagan . U fors tilida ham ijod qilgani ayrim manbalarda qayd etilgan .Aynan Alisher Navoiyning “ Muhokamat -ul-lug`atayn “ da Amir Temur zamonidan to o`g`li Shohrux mirzo hukmronligi oxirigacha yetishib chiqqan turkiy shoirlar qatorida Amiriy ham hurmat bilan sanab o`tadi . ” Majolis-un-nafois “ tazrikasining birinchi majlisida unga alohida majlis ajratib , shunday yozadi . Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha she`ri yaxshi voqe bo`libdur ,ammo shuhrat tutmabdur va bu bay tuning “Dahnoma” sidandur .

Ne emakdin ne uyqudin solib so`z ,

Emakdin tuyub, uyqudin yumib ko`z .

Fors tilidagi ijodida Kamol Xo`jandiyga tatabbee qilganligi aytilgan .<sup>1</sup> “Tizkiratush – shuaro “ mualiffi Davlatshox Samarqandiy Yusuf Amiriy Shohrux mirzo davrida kamolotga yetgan shoirlardan hisoblasa , Alisher Navoiy “Majolis -un-nafois “ va “Muhokamat-ul-lug`atayn “asarlarida uni Atoiy , Sakkokiy , Lutfiy qatorida tilga oladi .²Amiriyning “Dahnoma”si ham nomachilik an`analariga qat`iy rioya

¹ Navoiy A. Asarlar . Majolis – un – nafois XV tomlik XII tom -Toshkent . G`afur G`ulom 1966 . 22 – b.

² O`zbek She`riyati Antologiyasi . Klassik she`riyat . II tom – Toshkent .O`zbekiston davlat badiiy adabiyoti. 1961. 82 – b



qilingan holda yozilgan . Asar Ulug`bekni akasi Boysung`ur mirzoga bag`ishlangan , chunki shoir o`zini uning himoyasida yashaganligini alohida ta`kidlaydi .³

“Maxsus “radifli g`azalining yana bir muallifi sifatida bilganimiz , Umarxon Amiriy bilan tanishib o`tamiz . Umarxon hammamizga ma`lum va mashhur bo`lib , shox va shoir sifatida shuhrat qozongan . Umarxon 1787-yili Qo`qon shahrida o`zbeklarning Ming urug`idan bo`lgan Farg`ona hukmdori Norbo`tabiy xonadonida tug`iladi . 1807-1808-yillarda akasi unga Marg`ilon hokimligini ishonib topshiradi . Shu yillari tog`asi -Andijon hokimi Rahmonqulning qizi Nodiraga uylanadi . Ya`ni hammamiz uchun ma`lum bo`lgan shoir Nodira begim bilan turmush quradi . Oradan vaqt o`tib 1810-yil Umarxon Qo`qon taxtiga o`tiradi . Unga “Amir ul-muslimin “ degan unvon beriladi . Amiriy yaxshi ijodkor bo`lib bizga salmoqli adabiy meros qoldirgan . O`zbek mumtoz so`z san`ati tarixida alohida hodisa bo`lgan , Qo`qon adabiy muhitini vujudga kelishi va ravnaq topishida uning ro`li katta bo`lgan <sup>4</sup>. O`tmishda har qanday shoir ham devon tuzish darajasiga ko`tarila olmagan . Ammo Amiriy buni muvaffaqiyatli uddalagan sohibi devondur .

Vafo to bo`ldi jononimg`a maxsus ,
Jafou javr erur jonimg`a maxsus .
Xiromu jilvayu nozu malohat ,
Erur sarvi xirmonimg`a maxsus .
Guliston bo`ldi ko`nglum lola yang`ilig` ,
Vafo dog`i gulistonimga maxsus .
Kecha tong otguncha ko`nglim chekar oh ,
Erur bu sham vayronimg`a maxsus .
Ko`ngil konidadur ko`ngil la`ling hayoti ,
Bu gavhardur Badaxshonimg`amaxsus .
G`amingda ishq ranji rohatimdur ,
Bu darding o`ldi darmonimg`a maxsus .
G`ubori to`tiyoyi hoki poying ,

³ O`zbek adabiyoti bo`stoni . Muborak maktublar .- Toshkent . G`ofur G`ulom . 1987 . 62 – b .

⁴ Amiriy U. Devon (Matn) O`zbekcha she`rlar . I Tom . -Toshkent . “ Tamaddum”, 2017 . 143 – b .



Bo`lurmu chashmi giryonimg`a maxsus .
Kerak shaxdin gado holini so`rmoq ,
Bu davlat keldi sultonimg`a maxsus .
Ko`ngil xushtur visol umidi birla ,
Bu mahram hijronimg`a maxsus .
Shahidi nozi mujgoning erurman ,
Bu xanjardir mening qonimg`a maxsus .
Erurman ish mulkining Amiriy ,
Junun avboshi darmonimg`a maxsus .⁵

Ushbu g`azalni biz biz 1948-yilda nashr etilgan “ Navoiy zamondoshlari “ nomli kitobning 53-betida Yusuf Amiriyning g`azali sifatida ko`ramiz . Bundan tashqari 1961-yilda nashr etilgan “O`zbek She`riyati Antologiyasi” Klassik she`iyat ikkinchi tom kitobining 83-betida hamda 1986-yilda nashr etilgan “ Navoiy nigohi tushgan” nomli kitobining 133-betida va “ Nazm bo`stoni “ nomli kitobda bu g`azal Yusuf Amiriyning ijod mahsuli bo`lib kelgan bo`lsa , 2017-yilda nashr etilgan Amiriy Devoni o`zbekcha she`rlar birinchi tom kitobining 143-betida 108 -raqam ostida Umarxin Amiriyning g`azali sifatida uchramiz . Ushbu manbalar asosida o`quvchida savol tug`iladi, Asli bu g`azal kimga tegishli . Qaysi Amiriyning ijod mahsuli sifatida qarashimiz kerak . Albatta , bu masala har bir o`quvchini o`ylantiradi . Qanday qilib ikki davrda yashab ijod qilgan adiblarning ijod namunasida bir xil g`azal keladi . Bu g`azalda uslub ravon so`zlar rang – barang va albatta mukammal tarzda yozilgan . G`azal 11 bayt 22 misradan iborat bo`lib , “maxsus “ radifi bilan tugovchi g`azaldir . Aruzning hajazi musadasi mahzuf (maqsur) bahrida yozilgan bo`lib , Ma - fo – iy – lun / ma - fo -iy - lun /ma – fo – il shaklida , paradigmasi V- - - / V - - - / V - - (V - ~ ) ko`rinishida namayon bo`lgan . Qofiyalanishi muqayyad qofiyada bo`lib ,”N” tovushi raviy vazifasini bajarmoqda . G`azalning maqta`sida shoir taxllusi keltirilgan ,bunda Amiriy taxallus keltirilgan bo`lib , bu qaysi Amiriyniki bo`lishi mumkin?! G`azlning 5 -baytida esa Badaxshon toponimi keltirilgan . Bu esa g`azal Yusuf Amiriyning qalamiga mansub bo`lishi mumkin degan fikrlarni uyg`otadi .Bunga sabab shundaki ,

⁵ Zarifov H. (Nashrga tayyorlovchi) Navoiy zamondoshlari . – Toshkent . G`afur G`ulom . 1948 . 53 – b .



Alisher Navoiyning “Majolis – un -nafois “ tazrikasida shunday yozilgan “Aning qabri Badaxshoi sari Arxang Saroyidadur “. ⁶ Ya’ni qabri Badaxshonda bo’lsa , hayoti davomida u yerda yashagan deb ayta olamiz . Hmma kitobda g’azal so’zlari bir xil ko’rinishda bo’lib , ammo baytlarda biroz chalkashlikka duch kelishimiz mumkin . Yusuf Amiriyga tegishli bo’lgan barcha manbalarda begona bayt

Shaxidi nozi mujgoning erurman ,

Bu hanjardur mening qonimg`a maxsus .

Ushbu misra bilan ifodalangan bo’lsa , Umarxon Amiriyning devonida chop etilgan namunasida esa 8-9 va begona baytlar almashgan holda ko’rishimiz mumkin . Bu chalkashlik ham o’quvchilarni , albatta , befarq qoldirmaydi .

XULOSA

Shunday qilib muallifi munozarali bo’lgan bu g’azal adabiyotimizda o’rganilishi kerak bo’lgan muammoli holat deb ayta olamiz . Bu g’azalni yozilgan uslubi , tilini o’rganib chiqib va har ikki adibning yozish usuli va mahoratini bundan tashqari ikki davrda yashagan ikki Amiriyning so’zlashuv tilida yetarlicha farq bo’lganligi , g’azaldagi so’zlar qaysi davrga xos ekanligini bilish orqali bu muommoli vaziyatga yechim topa olishimiz mumkin deb o’ylaymiz .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.

⁶ Navoiy A . Asarlar . Majolis – un – nafois . XV tomlik XII tom . -Toshkent . G`afur G`ulom . 1966 . 82 -b .



5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 609v1-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.
15. Amiriy U. Devon (Matn) : O`zbekcha sherlar . 1 tom. -Toshkent : "Tamaddum ", 2017. 143 – b .



16. Navoiy A . Asarlar . Majolis -un – nafois XV tomlik XII tom . -Toshkent “G`afur G`ulom “, 1966. 22-b .
17. O`zbek She`riyati Antologiyasi . Klassik she`riyat . II tom – Toshkent .O`zbekiston davlat badiiy adabiyoti. 1961. 82 – b .
18. O`zbek adabiyoti bo`stoni . Muborak maktublar .- Toshkent . G`ofur G`ulom . 1987 . 62 –b.
19. Zarifov H. (Nashrga tayyorlovchi) Navoiy zamondoshlari . – Toshkent . G`afur G`ulom . 1948 . 53 – b .